E-ISSN : 2181-4341
https://wordlyknowledge.uz
IMPACT FACTOR(SJIF) : 3,934

DRAMATIK ASARLARDA REMARKALAR HAQIDA

Dilnozaxon Murotova Otabek qizi

Farg'ona davlat universiteti

Filologiya fakulteti o'zbek tili va adabiyoti

yo'nalishi 3-bosqich talabasi

+998901640908

murotova dilnozaxon@gmail.com

Anotatsiya: Ushbu maqolada dramadagi remarkalar haqida fikr yuritilgan bo'lib turli dramalardan namunalar keltirilgan.

Kalit so'zlar: Dramaturgiya**,** tragediya, tasvir,holat,remarka;

O'z davrida ma'lum bir taraqqiyot davrini boshdan kechirgan drama qolgan janrlardan qator xususiyatlari bilan ajralib turadi.Negaki,qolgan janrlardan farqli o'laroq dramada muallif qatnashmaydi. Asosiy yuk asar qahramonlarining o'ziga tushadi.Tasvir kuchini yanada ortirish, uni kitobxon ko'z oldiga keltirish uchun remarkalarni mas'uliyat bilan yozish talab etiladi. Chunki kichik satrlardan keng tasavvur shakllanadi. "Dramatizm faqat so'zlashuvda emas,balki bir-biri bilan so'zlashyotganlarning jonli harakatlaridan iboratdir"[1] Xususan, dramaturgiya boshqa janrlardan insonni ko'proq tasavvurga undash bilan ajralib turadi. Bu janr insonning dunyoqarashini oshirishga xizmat qiladi. Barchaga ma'lumki,tragediya so'zi yunoncha "tragoidia" so'zidan kelib chiqqan bo'lib "echki qo'shig'i" degan ma'noni bildiradi.Chunki qadimgi Yunonistonda teatr ijrochilari echki terisidan tikilgan liboslar kiyishgan. Bugun adabiyotda tragediya asar qahramonlarining fojeasi bilan yakun topayotgan asarlarga nisbatan qo'llanadi.

Drama,asosan,monolog va diologlardan iborat bo'ladi. Shuning uchun ham u adabiy janrlar,xususan, hikoya,qissa,roman,she'r,balladadan tubdan farq qiladi. Ushbu turdagi asarlarda muallif qahramonlarning turli holatlarini,kayfiyatini,ichki his-tuyg'ularini ularning nutqi va harakatlari orqali bayon etadi. Dramatik

matnlarda nutqning aniqligi,tovushning tembi,uslubi va pauzalar muhim ahamiyatga ega.Chunki dramaning dardli,g'amgin o'rinlari sokin ehtirosli hissiyotga boy o'rinlari shavq bilan,g'azabli joylari titroq ila ta'sirchan ifodalanishi lozim.

Mahmudxo'ja Behbudiy (1875-1919)ning "Padarkush" asari o'zbek adabiyotidagi ilk dramadir. Bu drama 1911-yilda yozilgan bo'lsa-da,1912-yilda "Turon" gazetasida bosilgan va 1913-yilda kitob holida chop etilgan. Dramaning e'lon qilinishiga mustabid chor hukumati ma'murlari yo'l berishmagan.

"Padarkush" n ichor senzurasidan o'tkazish uchun kitob muqovasiga rus tilida

"Rusiyaning fransuz istibdodidan qutulishi va mashhur Borodino muhorabasi xotiralari yubileyiga bag'ishlayman"deb yozgan.[23]

[1] Quronov D.Adabiyot nazariyasi .-Toshkent.2020.-B;-42

[3]Abdulla Ulug'ov."Adabiyotshunoslik nazariyasi"-Toshkent:G'afur G'ulom nomidagi nashriyot,2018.

E-ISSN : 2181-4341
https://wordlyknowledge.uz
IMPACT FACTOR(SJIF) : 3,934

Ushbu tragediyada remarkalar ham asosiy g‘oyani ochib berishga xizmat beriladigan izohlar. Remarkada asar ishtirokchilarining qiyofasi,yoshi,xulqi,xatti-harakati,qiliqlari,intonatsiyasi,sahna manzarasi va h.k yoritiladi. Uchinchi parda to‘liq remarkalar asosida yoritilganligi buning isbotini ko‘rsatadi:

UCHINCHI PARDA

Odat bo‘yicha boy yotar karavot ustiga uyquda, uyni bir tarafiga sanduq. Toshmurod bir eshikdan ohistalik ila kirar, bu taraf, u tarafga qarab, boshqa bir eshikni ochar va bir chetga turar. Tangriqul kirar, qo‘lida kalid va temir asbob,beliga pichoq, sandiq tarafiga borib, kalid solar, sandiq ochilmas. Toshmurodga qaraydur. Ishorat ila maslahat so‘raydur. Toshmurod sanduqni temir asbob ila sindirmoqg‘a amr berar. Tangriqul temir asbob ila sanduqni sindirar. Sanduqni ovozi ila boy uyg‘onur. Boy cho‘chib turar, kaltakni olib, voy, voy deb Tangriqulga yugurar. Toshmurod kaltakni kelib ushlar. Tangriqul pichoq ila boyni qo‘ltig‘iga urar. BOY *(taraqlab yiqilar).* Voh, jonim *(jon uzar tipirlar, xirillar. Tangriqul sandiqdan tanga xaltasini ko‘tarar, pichoq va temir asbobni o‘ziga berkitar, tashqaridan bir necha odam tovushi eshitilur).*

ODAMLAR. Nima gap, birov dod dedi? *(Bir necha erkak ila boy xotuni kirarlar, Tangriqul ila Toshmurodni ko‘rarlar).*

TANGRIQUL. Toshmurod, ot! *(Toshmurod havoga to‘pponcha otar va hozir kishilarga siloh ko‘rsatib qocharlar).*

BOYVUCHCHA. Voy, zolim dastidan! Bu qanday kun edi, voy dod! *(Chapak chalar, boy ustiga o‘zini tashlar, yuz va sochini yular).* He, juvonmarg

Toshmurod! Qon qus! Qoshki chechakda ketsayding! Voy, padarkush!

Toshmurod! Voy, dod-ey!

DOMULLA *(kirar).* Onajon, sizga sabrdan boshqa chora yo‘q. Bu badbaxtlik va musibatga sabab jaholat va nodonlikdir, bema’nilik va tarbiyasizlikdir. Uyingizni nodonlik buzdi. O‘g‘lingizni beilmlik Sibirga yuboradi. Joningizdan aziz farzandingizni tarbiyasizlik balosi sizdan umri ayritadur. Bolangizni otasi tarbiya etmadi, o‘qutmadi. Oxiri baloga uchradi, yomon rafiqlar yo‘ldan chiqardilarki,qurboni jaholat bo‘ldingiz.

BOYVUCHCHA *(to‘lg‘onib).* Oy, voy-voy bolam! Voy boyim, oh, voy u-u-u!

DOMULLA. Boyingiz-da nasihatga quloq solmadi va oxiri ushbu yomon hodisa paydo bo‘ldi. Endy sizga, ochig‘i, sabrdan boshqa iloj yo‘qdir, onajon. Olloh sizga sabr bersun.

BOYVUCHCHA *(kamoli betoqatlik ilan oh-vovaylo etar).* Dod, voy bolam! Voy boyim! Ikkisidan ham ayrildim, erimni mozorga, bolamni Sibirga yuborarlar! Voy, voy, voy u-u-u!..(49-53-bet)

Yuqoridagi parchadan ayonki,dramalarda qahramonlarning xarakter sifatida shakllanishida remarkalarning o‘rni nihoyatda katta.Biz qahramonni adresant sifatida oladigan bo‘lsak,uning ichki kechinmalarini,dard-u hasratini ifodalashda ham rremarkalar ahamiyati kattadir.

Umuman,holat remarkalari dramaning to‘laqonli bir butun asar holida shakllanishida muhim ahamiyatga ega.

E-ISSN : 2181-4341
https://wordlyknowledge.uz
IMPACT FACTOR(SJIF) : 3,934

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.M.Behbudiy.Tanlangan asarlar.Padarkush yoxud o‘qimagan bolaning holi,49-53bet.

2.B.Jalilov.O’zbek dramaturgiyasi poetikasi masalalari,1984.

3.Hotamov N,Sarimsoqov B. Adabiyotshunoslik terminlarining ruscha-o’zbekcha izohli lug’ati,1983]

4.Belinskiy V.G. To'liq to'plam Sochi, II jild, M.: Fanlar akademiyasining nashriyoti , SSSR, 1953 yil

5.XVII asr chet el adabiyoti tarixi / Ed. Z.I. Plavskin. – M., 1987 yil.

WORDLY
KNOWLEDGE